AQSH KORPORATIV HUQUQ MODELI: O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH UCHUN QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Hamzayeva Gullola Shavkat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi magistri

Annotatsiya. Tezisda AQSH korporativ huquqining ikki tayanch manbai — Delaver shtatining Umumiy korporatsiyalar to'g'risidagi qonuni (DGCL) va Amerika advokatlar assotsiatsiyasining Namunaviy biznes korporatsiyalari to'g'risidagi akti (MBCA) — hamda Delaver sudlari amaliyoti qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekistonda 2025–2026-yillarda qabul qilingan o'zgarishlar, xususan aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlarining fidutsiar majburiyatlari qonunda mustahkamlangani va «Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida»gi yangi Qonun qabul qilingani hisobga olingan holda, amerika tajribasidan qaysi institutlarni va qanday shaklda o'zlashtirish mumkinligi asoslanadi. Affillangan shaxslar bilan bitimlarning haqiqiyligi, biznes qarorlari prezumpsiyasi, hosila da'voning sudgacha tartibi, yopiq jamiyatlarda korporativ shartnomaning ustuvorligi, drag-along majburiyatining ijrosi va korporativ nizolarni ko'rishning ixtisoslashuvi bo'yicha qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korporativ huquq, DGCL, MBCA, Delaver Kansler sudi, fidutsiar majburiyatlar, biznes qarorlari qoidasi, affillangan shaxs bilan bitim, hosila da'vo, korporativ shartnoma, drag-along, majoritar aksiyador.

Abstract. The paper offers a comparative legal analysis of the Delaware General Corporation Law, the ABA Model Business Corporation Act and Delaware case law. Taking into account Uzbekistan's 2025–2026 reforms, including the statutory codification of fiduciary duties in joint-stock companies and the new Law on Limited Liability Companies, it identifies which US institutions can be adapted and in what form. Proposals address the validity of interested-party transactions, a business judgment presumption, a pre-suit demand procedure for derivative claims, the priority of shareholder agreements in closely held companies, enforcement of drag-along obligations and specialised adjudication of corporate disputes.

Keywords: corporate law, DGCL, MBCA, Court of Chancery, fiduciary duties, business judgment rule, interested transactions, derivative action, shareholder agreement, drag-along.

KIRISH

AQSHda korporativ huquq federal darajada emas, shtatlar darajasida shakllanadi. Korporatsiyaning ichki munosabatlari boshqaruv organlarining vakolatlari, direktorlarning majburiyatlari, aksiyadorlarning huquqlari u ta'sis etilgan shtat qonuni bilan tartibga solinadi (*internal affairs doctrine*). Natijada tadbirkor qaysi shtatda faoliyat yuritishidan qat'i nazar, kompaniyaning «huquqiy manzili»ni o'zi tanlaydi va bu tanlovda Delaver o'nlab yillardan beri yetakchi. Delaver Korporatsiyalar bo'limining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, shtatda 2,28 milliondan ortiq yuridik tuzilma ro'yxatda turadi; 2024-yilda AQSH da ro'yhatda o'tkazilgan kompaniyalarning 81,4 foizi ham Delaverni tanlagan [1].

Bu ustunlikni faqat qonun matni bilan izohlab bo'lmaydi. Delaverda uchta unsur bir-birini to'ldiradi: qoidalarining katta qismi dispozitiv bo'lgan DGCL, korporativ nizolarni hakamlar hay'atisiz ko'radigan Kansler sudi va shu sud hamda Delaver Oliy sudining qariyb bir asrlik pretsedentlari. MBCA esa boshqacha yo'lni ko'rsatadi: u amaldagi qonun emas, shtat qonun chiqaruvchilari uchun tayyorlangan namuna bo'lib, ko'plab shtatlarning korporativ qonunlari unga tayanadi [2]. Shartli ravishda aytganda,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Delaver «sud orqali moslashuvchanlik»ni, MBCA esa «matnda aniq yozilgan tartib-taomil»ni ifodalaydi. Sud pretsedenti rasmiy huquq manbai hisoblanmaydigan O'zbekiston uchun ikkinchi yondashuv amaliy jihatdan qulayroq.

Mavzuning dolzarbligi so'nggi bir yil ichida sezilarli oshdi. 2025-yil 27-noyabrdagi O'RQ-1097-son Qonun bilan aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlarining fidutsiar majburiyatlari va majoritar aksiyadorning majburiyatlari qonunda belgilandi. 2026-yil 21-aprelda «Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida»gi yangi Qonun qabul qilinib, 22-iyuldan kuchga kirdi. «Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda esa markaz hududida Angliya va Uels umumiy huquqini qo'llash hamda alohida tijorat sudini tashkil etish nazarda tutildi. Demak, bugungi savol amerika tushunchalarini qabul qilish yoki qilmaslikda emas, ularni ishlaydigan protsessual mexanizmlar bilan ta'minlashda. Tezisning maqsadi — AQSH korporativ huquqining tayanch institutlarini O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi bilan solishtirib, o'zlashtirish mumkin bo'lgan aniq mexanizmlarni asoslash.

ASOSIY QISM

1. Delaver modeli: qonun, sud va pretsedentning uyg'unligi. DGCL ning §141(a) bandiga ko'ra korporatsiya faoliyati direktorlar kengashi tomonidan yoki uning rahbarligi ostida boshqariladi, MBCA ning §8.01(b) bandi ham shunga o'xshash qoidani belgilaydi. Amerika modelida strategik va nazorat funksiyalari bitta organ kengashda jamlanadi, xolislik esa kengash tarkibidagi mustaqil direktorlar va qo'mitalar (§141(c)) orqali ta'minlanadi. O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv ikki bo'g'inli: kuzatuv kengashi va ijroiya organi alohida tuziladi. Shu sababli amerika qoidalarini so'zma-so'z ko'chirish emas, ularning vazifasini milliy organlar tizimiga moslashtirish to'g'ri bo'ladi.

Delaver huquqining markazida ikki fidutsiar majburiyat turadi: ehtiyotkorlik (*duty of care*) va sadoqat (*duty of loyalty*). Ularning mazmunini qonun emas, sud amaliyoti shakllantirgan. 1939-yilda Delaver Oliy sudi *Guth v. Loft* ishida Loft kompaniyasi prezidenti kompaniya resurslaridan foydalanib Pepsi-Cola biznesini shaxsan egallab olganini sadoqat burchining buzilishi deb topdi va «korporativ imkoniyat» doktrinasiga asos soldi. 1984-yildagi *Aronson v. Lewis* qarori biznes qarorlari qoidasini (*business judgment rule*) aniq ta'rifladi: direktorlar qarorni xabardorlik asosida, vijdonan va korporatsiya manfaatini ko'zlab qabul qilgan deb taxmin qilinadi, buning aksini isbotlash da'vogar zimmasida. Aronson qarorining ayrim qismlari keyinroq qayta ko'rib chiqilganini ham qayd etish kerak: apellyatsiya tartibida ko'rib chiqish standarti *Brehm v. Eisner* (2000) ishida, hosila da'voda talabning befoydaligini baholash testi esa *United Food & Commercial Workers Union v. Zuckerberg* (2021) ishida o'zgartirilgan. Doktrinaning o'zi esa kuchida qolmoqda.

Qonun chiqaruvchi va sud o'rtasidagi muloqotning yaqqol namunasi — DGCL §102(b)(7). 1985-yilda *Smith v. Van Gorkom* ishida direktorlar qo'shilish bitimini yetarlicha o'rganmasdan ma'qullagani uchun ehtiyotkorlik burchini buzgan deb topilgach, 1986-yilda qonunga ta'sis guvohnomasida direktorlarning bu burch bo'yicha pul javobgarligini cheklash imkoniyati kiritildi; 2022-yildan u ofitserlarga ham tatbiq etiladi (korporatsiya nomidan qo'zg'atilgan da'volar bundan mustasno). Biroq cheklov sadoqat burchini buzish, insofsiz xatti-harakatlar, qonunni bila turib buzish va noqonuniy shaxsiy naf olish holatlariga taalluqli emas. Mantiq oddiy: shaxsiy mol-mulkini yo'qotishdan qo'rqqan boshqaruvchi foydali, ammo tavakkalli qarorlardan qochadi, manfaatlar to'qnashuvida esa himoya bo'lmasligi kerak.

Manfaatdorlik bitimlari sohasida Delaver 2025-yilda muhim qadam qo'ydi. 2025-yil 25-martda imzolanib kuchga kirgan Senate Bill 21 bilan DGCL §144 yangi tahrirda bayon etildi: direktor, ofitser yoki nazorat qiluvchi aksiyador manfaatdor bo'lgan bitim to'liq axborot asosida mustaqil direktorlar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

(qo'mita) yoki manfaatdor bo'lmagan aksiyadorlar tomonidan ma'qullangan bo'lsa, fidutsiar majburiyat buzilganligi haqidagi da'volardan himoyalangan zonaga (*safe harbor*) tushadi; jamiyatni xususiy kompaniyaga aylantirish bitimlarida esa ikkala ma'qullash birga talab qilinadi. Delaver Oliy sudi 2026-yil 27-fevraldagi *Rutledge v. Clearway Energy Group LLC* qarorida bu o'zgarishlarning konstitutsiyaviyligini tasdiqladi. MBCA ning §§8.60–8.63 bandlari ham xuddi shu mantiqqa qurilgan: talab etilgan axborot oshkor qilingan va bitim malakali direktorlar yoki malakali aksiyadorlar tomonidan ma'qullangan, yoxud adolatli bo'lsa, faqat manfaatdorlik sababli bitim bekor qilinmaydi va undan zarar undirilmaydi.

Tashkiliy-huquqiy shakllar haqida ham bir mulohaza. Amaliyotda tez-tez tilga olinadigan «C-korporatsiya» va «S-korporatsiya» alohida yuridik shakl emas, federal soliq rejimidir. C-korporatsiya foydasi korporativ darajada (2018-yildan 21 foiz stavkada), dividendlar esa yana aksiyadorlar darajasida soliqqa tortiladi; S-korporatsiya maqomi aksiyadorlari 100 nafardan oshmagan, bitta turdagi aksiyaga ega va qonunda sanab o'tilgan aksiyadorlardan (norezident chet elliklar bundan mustasno) iborat korporatsiyalarga daromadni bevosita aksiyadorlarga «o'tkazish» imkonini beradi. Delaver MChJ qonunining §18-215 bandi esa bitta MChJ ichida aktivlari va majburiyatlari bir-biridan ajratilgan «seriyalar» tuzishga ruxsat beradi.

2026-yil 28-fevraldan kuchga kirgan O'RQ-1097-son Qonun «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning (keyingi o'rinlarda — AJ to'g'risidagi Qonun) 81-moddasini fidutsiar majburiyatlar ro'yxati bilan to'ldirdi. Endi kuzatuv kengashi a'zolari, direktor, boshqaruv a'zolari va ishonchli boshqaruvchi vijdonan harakat qilishi, jamiyat mol-mulkidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmasligi, tegishli organlar roziligisiz jamiyatning biznes imkoniyatlaridan foydalanmasligi, jamiyatning asosiy faoliyati sohasida rozilik olmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanmasligi va maxfiy axborotni oshkor qilmasligi shart. Qonunga kiritilgan 28^1-modda esa ovoz beruvchi aksiyalarning ellik foizidan ortig'iga ega yoki qarorga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata oladigan majoritar aksiyadorning jamiyat va boshqa aksiyadorlar manfaatiga zarar yetkazishi oldindan ayon bo'lgan qarorlarni qabul qilmaslik majburiyatini va javobgarligini belgiladi. Mazmunan bu *Guth v. Loft* ishidagi korporativ imkoniyat doktrinasiga juda yaqin.

Yangi MChJ qonuni ham shu yo'ldan borgan: unda kuzatuv kengashi va ijro organlarining fidutsiar majburiyatlari, javobgarligi, minoritar va majoritar ishtirokchilar maqomi hamda affillangan shaxslar bilan bitimlarga oid alohida bob mavjud. E'tiborli jihati, javobgarlik asoslari va miqdorini aniqlashda ish muomalasi odatlari va ish uchun ahamiyatli boshqa holatlar hisobga olinishi belgilangan. Buni biznes qarorlari qoidasining boshlang'ich ko'rinishi deyish mumkin, ammo hali to'liq qoida emas. Majburiyatni e'lon qilish bilan uni amalda ishlatish orasida esa masofa bor. Tahlil olti bo'shliqni ko'rsatadi.

Birinchidan, sud boshqaruvchining biznes qarorini qay darajada qayta baholashi mumkinligi qonunda aytilmagan. Natijasi salbiy bo'lgan har qanday qaror zarar undirish to'g'risidagi da'vo predmetiga aylanishi mumkin, bu esa ijroiya organlarni haddan tashqari ehtiyotkor, lekin samarasiz qarorlarga undaydi. Amerika tajribasida bu xavfni biznes qarorlari qoidasi va §102(b) muvozanatlaydi.

Ikkinchidan, AJ to'g'risidagi Qonunning affillangan shaxslar bilan bitimlarga oid moddalari ma'qullash tartibini, affillangan shaxsning muhokama va ovoz berishda ishtirok etmasligini, aksiyadorning bitim ustidan nizolashish huquqini belgilaydi. Ammo qonun tartibga to'liq rioya qilib ma'qullangan bitimning keyingi sud nizosidagi huquqiy oqibatini aniqlamaydi, isbot yuki ham taqsimlanmagan. Bir tomondan, halol kuzatuv kengashi a'zolari iqtisodiy jihatdan foydali bitimlardan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ham tiyiladi, ikkinchi tomondan, protsedura noaniqligidan insofsiz shaxslar foydalanishi ehtimoli saqlanadi.

Uchinchidan, 81-moddaga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalarning kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador jamiyatga yetkazilgan zarar uchun boshqaruv organlari a’zolari ustidan sudga murojaat qilishi mumkin. Huquq bor, tartib esa yo‘q: jamiyatga oldindan murojaat qilish, talabni ko‘rib chiqish muddati, manfaatlar to‘qnashuvida kim qaror qabul qilishi, asossiz da’volarni saralash va xarajatlarni taqsimlash masalalari ochiq. MBCA ning §§7.40–7.47 bandlari bularning barchasiga javob beradi: aksiyador avval jamiyatga yozma talab yuboradi va, odatda, 90 kun kutadi (§7.42); jamiyat ichki tekshiruv boshlagan bo‘lsa, sud ishni to‘xtatib turishi mumkin (§7.43); malakali direktorlar vijdonan va asosli tekshiruvdan so‘ng da’voni davom ettirish jamiyat manfaatiga zid degan xulosaga kelsa, sud ishni tugatadi (§7.44); xarajatlar da’vo jamiyatga sezilarli foyda keltirgan yoki, aksincha, asossiz qo‘zg‘atilganiga qarab taqsimlanadi (§7.46). Delaver bu masalani sud amaliyoti orqali hal qilgan (*Zapata Corp. v. Maldonado*, 1981), biroq kontinental tizimga MBCA dagi qonun matnida mustahkamlangan model osonroq moslashadi.

To‘rtinchidan, AJ to‘g‘risidagi Qonunning 26-moddasi va yangi MChJ qonunining 9-moddasi korporativ shartnoma tuzish huquqini tan oladi. Biroq bunday shartnoma, qoida tariqasida, faqat uning taraflari uchun majburiy bo‘lib, qonunda belgilangan boshqaruv organlari tizimidan chekinishga asos bo‘lmaydi; MChJ qonuniga ko‘ra ta’sis shartnomasi va ustav o‘rtasida ziddiyat bo‘lsa, ustav ustun turadi. MBCA §7.32 esa barcha aksiyadorlar imzolagan shartnoma direktorlar kengashini umuman tuzmaslik yoki uning vakolatlarini cheklashni nazarda tutishi mumkinligini, u aksiyalar birjada kotirovka qilinguncha amal qilishini belgilaydi; DGCL ning yopiq korporatsiyalarga oid qoidalari (§§350–351) va §218 (ovoz berish trastlari va kelishuvlari) ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bundan tashqari, amaldagi fuqarolik qonunchiligida ishonchnoma uni bergan shaxs tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin. Shu bois minoritar aksiyadorlarning ishonchnomaga tayangan ovoz berish ittifoqi yig‘ilish arafasida ham parchalanib ketishi mumkin. Delaverda esa manfaat bilan bog‘langan ishonchnoma qaytarib olinmaydigan deb belgilanishi mumkin (§212(e)).

Beshinchidan, chiqish (*exit*) mexanizmlari bir tomonlama. Yangi MChJ qonunining 21-moddasiga ko‘ra ulushning ellik va undan ortiq foiziga ega bo‘lgan shaxs minoritar ishtirokchilarga ularning ulushlarini bozor qiymatida sotib olishni taklif qilishi shart — bu minoritarni himoya qiladi. Teskari vaziyat, ya’ni investor kompaniyani to‘liq sotmoqchi bo‘lganda kichik ulush egasining rozilik bermasligi (*hold-up* muammosi) esa tartibga solinmagan: korporativ shartnomadagi drag-along majburiyatini faqat sud orqali majburan ijro ettirish mumkin, ulushga bo‘lgan huquq esa Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reestriga yozuv kiritilgan paytdan o‘tadi. Delaverda DGCL §202(c) aksiya egasini uni sotishga majbur qiluvchi cheklovlarni belgilashga ruxsat beradi, Delaver Oliy sudi esa *Manti Holdings v. Authentix* (2021) ishida drag-along bilan bog‘liq aksiyadorlar shartnomasida baholash huquqidan (*appraisal*) oldindan voz kechishni ijro etiladigan deb topgan.

Oltinchidan, Iqtisodiy protsessual kodeksining 30-moddasida sanab o‘tilgan korporativ nizolar umumiy tartibda iqtisodiy sudlar tomonidan yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudda ko‘riladi. Toshkent xalqaro moliya markazida alohida tijorat sudi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, u asosan markaz faoliyati bilan bog‘liq nizolarga mo‘ljallangan. Markazdan tashqaridagi jamiyatlar uchun yangi fidutsiar normalarni bir xil talqin qiladigan ixtisoslashgan tarkib yo‘q. Delaver tajribasi ko‘rsatadiki, normaning qiymati uni qo‘llovchi sudning malakasiga bog‘liq: Delaver Konstitutsiyasining IV moddasi 10-bo‘limi va Delaver

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kodeksi 10-sarlavhasining 3-bobi asosida faoliyat yurituvchi Kansler sudi aynan korporativ va *equity* nizolariga ixtisoslashgan.

XULOSA VA QONUNCHILIKKA TAKLIFLAR

Tahlil O'zbekiston fidutsiar majburiyatlarni moddiy huquq darajasida tan olish bosqichini o'tganini ko'rsatadi. Navbatdagi vazifa — bu majburiyatlarni muvozanatlovchi himoya vositalari va protsessual mexanizmlarni yaratish. Shundan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi.

1. AJ to'g'risidagi Qonunga 88¹-modda («Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimning haqiqiyligi») kiritish, MChJ qonunining 58–59-moddalariga esa mos qo'shimchalar kiritish. Mazmuni: affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim faqat affillanganlik mavjudligi sababli haqiqiy emas deb topilmaydi va zarar undirishga asos bo'lmaydi, agar affillanganlik, uning xususiyati va bitimning muhim shartlari oldindan to'liq oshkor qilinib, bitim manfaatdor bo'lmagan kuzatuv kengashi a'zolari yoki manfaatdor bo'lmagan aksiyadorlar tomonidan ma'qullangan bo'lsa, yoxud bitimning tuzilgan paytdagi adolatliligi isbotlansa. Birinchi holatda bitimning adolatsizligini isbotlash da'vogar zimmasida, ikkinchi holatda adolatlilikni isbotlash bitimni himoya qilayotgan tomon zimmasida bo'ladi (DGCL §144, MBCA §8.61).

2. AJ to'g'risidagi Qonunning 81-moddasiga va MChJ qonunining boshqaruv organlari javobgarligiga oid moddasiga biznes qarorlari prezumpsiyasini kiritish: boshqaruv organi a'zosi qarorni shaxsiy manfaatdorliksiz, o'ziga mavjud axborot asosida va jamiyat manfaatini ko'zlab qabul qilgan bo'lsa, qaror oqibatida zarar yuzaga kelganining o'zi javobgarlikka asos bo'lmaydi; aksini isbotlash da'vogar zimmasida. Shuningdek, ustavda ehtiyotkorlik burchi bo'yicha pul javobgarligini cheklash imkoniyatini nazarda tutish, bunda sadoqat burchi buzilishi, qasddan qilingan harakatlar va noqonuniy naf olish holatlarini bu imkoniyatdan chiqarish (DGCL §102(b)(7)).

3. AJ to'g'risidagi Qonunga 81¹-modda («Jamiyatga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'voni taqdim etish tartibi») kiritish: aksiyador sudga murojaat qilishdan oldin kuzatuv kengashiga da'vo asoslari, taxminiy zarar, javobgar shaxslar va so'ralayotgan choralar ko'rsatilgan yozma talab yuboradi; kuzatuv kengashi yoki manfaatdor bo'lmagan a'zolardan iborat komissiya 30 kun ichida qaror qabul qiladi; jamiyat da'vo qo'zg'atmasa, kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi manfaatdor bo'lsa yoki kechiktirish tuzatib bo'lmaydigan zararga olib kelsa, aksiyador bevosita sudga murojaat qiladi; ichki tekshiruv davrida sud ishni to'xtatib turishi mumkin; jamiyatga foyda keltirgan da'vo bo'yicha aksiyadorning oqilona xarajatlari jamiyat hisobidan qoplanadi, asossiz yoki nopok maqsadda qo'zg'atilgan da'vo xarajatlari esa da'vogarga yuklanadi (MBCA §§7.42–7.46).

4. AJ to'g'risidagi Qonunning 26-moddasini va MChJ qonunining 9-moddasini to'ldirish: aksiyalari ommaviy joylashtirilmagan jamiyatlarda barcha aksiyadorlar (ishtirokchilar) imzolagan korporativ shartnoma boshqaruv vakolatlarini qonunning dispozitiv normalaridan farqli taqsimlashi, jumladan kuzatuv kengashini tuzmaslikni nazarda tutishi mumkin; bunday shartnoma mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot uchinchi shaxslar uchun ochiq reestrga kiritiladi va aksiyalar ommaviy joylashtirilganda shartnoma bu qismda kuchini yo'qotadi. Shu moddalarda ovoz berish kelishuvlarini va ovoz berish huquqini muayyan muddatga yagona boshqaruvchiga o'tkazishni (ovoz berish trasti) ham bevosita nazarda tutish (MBCA §7.32, DGCL §218).

5. Drag-along majburiyatining ijrosini ta'minlash. Fuqarolik kodeksiga korporativ shartnoma ijrosini ta'minlash uchun beriladigan, uning amal qilish muddatida qaytarib olinmaydigan ishonchnoma institutini kiritish (DGCL §212(e)). Ulushni yoki aksiyalarni o'tkazishni ro'yxatga olish uchun notarial tasdiqlangan korporativ shartnoma, uchinchi shaxsning rasmiy taklifi, minoritarga yuborilgan xabarnoma va unga tegishli narx notarius depozitiga kiritilganini tasdiqlovchi hujjat yetarli bo'lishini belgilash.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Minoritarning sudga murojaat qilish huquqi saqlanadi, biroq da'vo o'tkazishni to'xtatmaydi va, insofsizlik isbotlangan hollar bundan mustasno, narx hamda zarar masalasiga qaratiladi. Bunday yechim mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini saqlagan holda sud nazoratini bitimdan keyingi bosqichga ko'chiradi.

6. Iqtisodiy protsessual kodeksining 30-moddasiga va «Sudlar to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish kiritib, iqtisodiy sudlar tizimida respublika miqyosidagi yurisdiksiyaga ega ixtisoslashgan korporativ sudlov tarkibini tashkil etish. Unga ommaviy aksiyadorlik jamiyatlari, fidutsiar majburiyatlar, hosila da'volar va korporativ shartnomalar bo'yicha nizolarni taalluqli qilish, sudyalarni ixtisoslashtirish hamda Oliy sud Plenumi tomonidan fidutsiar majburiyatlar va biznes qarorlari prezumpsiyasini qo'llash bo'yicha tushuntirishlar qabul qilinishini ta'minlash.

Mazkur takliflar amerika modelini mexanik ko'chirishni emas, O'zbekistonda allaqachon qabul qilingan fidutsiar normalarni amalda ishlaydigan holatga keltirishni ko'zda tutadi. Ularning umumiy g'oyasi halol boshqaruvchini asossiz javobgarlikdan himoya qilish va bir vaqtning o'zida manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan joyda nazoratni kuchaytirish. Delaver korporativ huquqining barqarorligi ham aynan shu muvozanatga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, 1996-yil 26-aprel, 223-I-son (2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son Qonuni tahririda) URL: https://lex.uz/docs/-2382409
2. O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni, 2026-yil 21-aprel, O'RQ-1137-son
3. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, 2018-yil 24-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
5. Delaware General Corporation Law, 8 Del. C. ch. 1 (§§102(b)(7), 141, 144, 202, 212, 218, 350–351).
6. Delaware Senate Bill 21, 153rd General Assembly (2025), amending 8 Del. C. §§144, 220 (signed March 25, 2025).
7. Delaware Limited Liability Company Act, 6 Del. C. ch. 18, §18-215.
8. Delaware Constitution, art. IV, §10; 10 Del. C. ch. 3 (Court of Chancery).
9. *Smith v. Van Gorkom*, 488 A.2d 858 (Del. 1985).
10. *Zapata Corp. v. Maldonado*, 430 A.2d 779 (Del. 1981).
11. Delaware Division of Corporations. 2025 Annual Report. URL: https://corp.delaware.gov/stats/2025-annual-report/
12. American Bar Association, Corporate Laws Committee. Model Business Corporation Act (2016 Revision, as amended), §§1.45–1.52, 7.32, 7.40–7.47, 8.01, 8.60–8.63, 9.20.
13. *Guth v. Loft, Inc.*, 5 A.2d 503 (Del. 1939).
14. *Aronson v. Lewis*, 473 A.2d 805 (Del. 1984).
15. *Brehm v. Eisner*, 746 A.2d 244 (Del. 2000).
16. *United Food & Commercial Workers Union v. Zuckerberg*, 262 A.3d 1034 (Del. 2021).
17. *Smith v. Van Gorkom*, 488 A.2d 858 (Del. 1985).
18. *Zapata Corp. v. Maldonado*, 430 A.2d 779 (Del. 1981).
22. Delaware Division of Corporations. 2025 Annual Report. URL: https://corp.delaware.gov/stats/2025-annual-report/

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.